

Nosirov Baxtiyorjon Ixtiyorjonovich,
(Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti)
Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

RESPUBLIKAMIZDA DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISHNING HUQUQIY ASOSLARI.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning huquqiy asoslari, ularning shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — kadastr tizimini boshqarish, yangilash va takomillashtirishda amal qilinadigan qonun hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning amaliy ahamiyatini o'rganishdan iborat. Ishda "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va soha bo'yicha me'yoriy hujjatlar asosida kadastr axborot tizimining tashkil etilishi, yuritilishi va ochiqligi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kadastr ma'lumotlarining aniqligi, shaffofligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: davlat kadastr, huquqiy asos, normativ-huquqiy hujjatlar, kadastr tizimi, boshqaruv, shaffoflik.

Носиров Бахтиёржон Ихтиёржонович
Университет менеджмента и современных технологий
Проректор по финансово-экономическим вопросам,
кандидат философии (PhD) по географическим наукам

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ И ВЕДЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ КАДАСТРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной научной работе рассматриваются правовые основы создания и ведения государственных кадастров в Республике Узбекистан, а также анализируются процессы их формирования и развития. Цель исследования заключается в изучении законодательных и нормативно-правовых актов, регулирующих управление, обновление и совершенствование кадастровой системы, а также в определении их практического значения. В работе проанализированы положения Закона «О государственных кадастрах», указы Президента, постановления Правительства и другие нормативные документы, касающиеся организационного, ведения и открытости кадастровой информационной системы. Результаты исследования позволяют разработать научно-практические рекомендации, направленные на повышение точности, прозрачности и эффективности управления кадастровыми данными.

Ключевые слова: государственный кадастр, правовая основа, нормативно-правовые акты, кадастровая система, управление, прозрачность.

Nosirov Bakhtiyorjon Ikhtiyorjonovich,
University of Management and Future Technologies
(University of Management and Modern Technologies)
Pro-Rector for Finance and Economics
Doctor of Philosophy (PhD) in Geography

LEGAL BASIS FOR THE CREATION AND MAINTENANCE OF STATE CADASTRES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: *This research paper examines the legal framework for the creation and maintenance of state cadastral systems in the Republic of Uzbekistan and analyzes the processes of their formation and development. The purpose of the study is to examine the legislative and regulatory acts governing the management, updating, and improvement of the cadastral system, as well as to determine their practical significance. The paper analyzes the provisions of the Law "On State Cadastres," presidential decrees, government resolutions, and other regulatory documents related to the organization, maintenance, and openness of the cadastral information system. The results of the study allow for the development of scientific and practical recommendations aimed at improving the accuracy, transparency, and efficiency of cadastral data management.*

Key words: *state cadastre, legal basis, regulatory legal acts, cadastral system, management, transparency.*

Kadastr munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi, “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi, “Temiryo‘l transporti to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, “Xavfli ichlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi, “Chiqindilar to‘g‘risida”gi, “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi, “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi va boshqa Qonunlari, shuningdek

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. [43, 10-11 b.].

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari, xususan hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan, jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hududiy rejalashtirish, shaharsozlik, hududlar planirovkasi, arxitektura-qurilish loyihasi, kapital qurilish obyektlarini qurish, ularni rekonstruksiya qilish, shuningdek, tarkibiy va boshqa xususiyatlarga ta'sir qiluvchi kapital ta'mirlash bo'yicha munosabatlarni tartibga soladi, davlat shaharsozlik kadastrini yuritishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi soliqlar va yig'imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining quyidagi

masalalar bo'yicha munosabatlarni tartibga soladi: uy-joy fondini hisobga olish; uy-joy fondini saqlash, qarash va ta'mirlashni ta'minlash; fuqarolarning uy-joy huquqlariga rioya etilishi va uy-joy fondidan maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilish. Uylarni qurish, turar joylarni qayta qurish va o'zgartirish, muhandislik qurilmalaridan foydalanish, kommunal xizmatlar bilan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi Qonunining maqsadi davlat yer kadastri yuritishning, iqtisodiyotni rivojlantirish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlarini ta'minlash, yerlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun kadastr ma'lumotlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashdan iborat. O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonunining maqsadi davlat kadastrlarini yuritish, kadastrga doir axborotni to'plash va undan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonunda davlat kadastri tushunchasi, Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYaT), uning tarkibi, davlat kadastrlari obyektlari, davlat kadastrlarini yuritishning asosiy prinsiplari, davlat kadastrlarini yuritish sohasida davlat boshqaruvi, kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, kadastr obyektlarini hisobga olish, baholash, kadastr hujjatlari, davlat kadastrlariga doir axborotni taqdim etish, davlat kadastrlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik tartibi belgilab qo'yilgan.


O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonunining maqsadi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari – ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirishdir. Ma'lumki, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan

o'tkazish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonuni 28.11.2022 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va 2023-yil 1-mart kunidan kuchga kirgan.

Mazkur Qonunning amal qilishi ko'chmas mulkning quyidagi turlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga nisbatan tatbiq etiladi: • yer uchastkalariga; • binolarga, inshootlarga, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlarga; • ko'p yillik dov-daraxtlarga; • mulkiy majmua sifatidagi korxonaga. Ushbu Qonunning amal qilishi yer osti boyliklariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga nisbatan tatbiq etilmaydi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: • qonuniylik; • ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning majburiyligi; • davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning ustuvorligi; • ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi axborotning ochiqligi; • taqqoslanuvchanlik va muvofiqlik.

Ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlar yuzaga kelganligi, boshqa shaxsga o'tganligi, cheklanganligi va bekor qilinganligi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan amalga oshirilgan ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Ko'chmas mulkka bo'lgan quyidagi huquqlar yoki cheklovlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim: • mulk huquqi; • doimiy egalik qilish huquqi; • doimiy foydalanish huquqi; • meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi; • ijara huquqi; • ikkilamchi ijara huquqi; • xo'jalik yuritish huquqi; operativ boshqarish huquqi; • ko'chmas mulkni ishonchli boshqarish huquqi; • bepul foydalanish huquqi; • renta; • ipoteka; • servitut; • ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarga nisbatan qonundan kelib chiqadigan yoki vakolatli davlat organlari tomonidan qo'yilgan (belgilangan) cheklovlar. Keyingi yillarda davlat kadastrlari sohasida qator islohotlar amalga

oshirildi, davlat kadastrlarini tartibga solishning huquqiy asoslari mustahkamlab borilmoqda.



Rasm. ArcGIS dasturiy ta'minotlari asosida yaratilgan davlat kadastrlari kartalarini yaratishning umumiy texnologik sxemasi .

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentyabrdagi PF6061-son farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son qarori hamda uni amalga oshirish maqsadida 2021-yilning 22-iyunida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 389- son qarori qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son Farmoniga muvofiq Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tashkiliy bo‘ysunuvi o‘zgartirilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘ysunuviga o‘tkazildi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tizimi mamlakatning iqtisodiy, huquqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kadastr sohasini boshqarishning huquqiy asoslari “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Ushbu hujjatlar davlat kadastrlarini shakllantirish, yuritish, yangilash va ulardan foydalanish tartibini belgilab beradi hamda sohada yagona axborot tizimini joriy etishga xizmat qiladi.

Davlat kadastrlarini samarali yuritish natijasida tabiiy, iqtisodiy va mulkiy resurslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligi, aniqligi va ochiqligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, kadastr axborot tizimini raqamlashtirish va zamonaviy GAT texnologiyalarini joriy etish bu sohada boshqaruv samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allanazarov O., Prenov Sh.M. GAT dasturlarida aloqa obyektlari kadastr uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish haqida. “Geografiya va O‘zbekiston tabiiy resurs salohiyatini baholash muammolari”. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent 2016-y.
2. Safarov E.Yu. “Kadastrlarni yaratish maqsadida tuproqlar qoplamini kartaga olishning nazariyasi va metodlarini ishlab chiqish” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi. 2006-yil. 37-39 b.
3. O‘zbekiston yer resurslar atlas. — T.: Geoinformkadastr, – 2001. – 64 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasining 2017-2019-yillarda Milliy hisobotlari.
5. <https://lex.uz/pdfs/5841063>